




Shoʻrchida yoshlar bilan uchrashuv oʻtkazildi hamda mahallani rivojlantirish taqdimotlari bilan tanishildi



Surxondaryo viloyati hokimi Ulugʻbek Qosimov bugun kunning ikkinchi yarmida Shoʻrchi tumaniga tashrif buyurdi. Dastlab, tumanning Guliston mahallasida “Uychi tumani tajribasi” asosida ishsizlikdan holi hududga aylantirish, migratsiya va kambagʻallikni keskin qisqartirish, aholi daromadlarini oshirish hamda tomorqadan samarali foydalanishni tashkil etish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishildi.

Mahallaga biriktirilgan mutasaddilar aholi, xususan, yoshlarning bandligini taʼminlash, migratsiyadan qaytganlar bilan ishlash, tomorqadan samarali foydalanishni yoʻlga qoʻyish boʻyicha kelgusidagi rejalar taqdimot qilindi. Shuningdek, shu yerning oʻzida turizm va yoshlar koʻchalarini tashkil etish boʻyicha tayyorlangan taqdimotlar ham koʻrib chiqildi.



Viloyat rahbari mahallada birinchi navbatda aholi bandligini taʼminlash orqali kambagʻallikni qisqartirish, migratsiyadagilar va ularning oilalari bilan ishlash, xorijdan qaytganlarni ishga joylashtirish lozimligini taʼkidladi hamda turizm va yoshlar koʻchalari loyihalari yuzasidan ham tegishli tavsiyalarini berdi.



Shuningdek, 14-sonli maktabning yangi o'quv yili va kuz-qiz mavsumiga tayyorgarlik holati ko'zdan kechirildi. Amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan mas'ullar axborot berishdi. Viloyat rahbari maktabda xorijiy tillar tanlovining tuman bosqichi g'oliblarini taqdirlash marosimida ham ishtirok etdi. G'oliblarga pul mukofotlari sertifikatlari, kompyuter jamlanmalari hamda boshqa jihozlar topshirildi.



Shundan so'ng, viloyat hokimining yoshlar bilan uchrashuvi o'tkazildi. "Hokim va yoshlar uchrashuvi"da yoshlar o'zlarining murojaat va takliflarini bildirishdi. Ochiq va samimiy muloqot davomida bildirilgan takliflar va ko'tarilgan masalalarni hal etish bo'yicha mutasaddilarga aniq muddatlar bilan vazifalar belgilab berildi.